# ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY-HUDUDIY TAHLILI

**Eshankulova Irodaxon Avazxanovna**
Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi
***https://doi.org/10.5281/zenodo.21411354***

***Annotatsiya****. Mazkur maqolada zo‘ravonlikka uchragan ayollarning zo‘ravonlikka uchrash darajasi yosh ko‘rsatkichlari bo‘yicha Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida qiyosiy tahlil qilingan. So‘rovnoma asosida zo‘ravonlik turlari, psixologik holat, oilaviy munosabatlar va yosh xususiyatlari o‘rganildi. Natijalar psixologik yordam hamda profilaktika ishlarini takomillashtirish, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *zo‘ravonlik, ayollar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, hududiy tahlil, oilaviy munosabatlar, psixologik holat, jismoniy zo‘ravonlik, psixologik zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik.*

***Annotation.*** *This article presents a comparative analysis of the prevalence of violence against women based on age groups, using the examples of the Syrdarya and Surkhandarya regions. Based on a questionnaire survey, the types of violence, psychological condition, family relationships, and age-related characteristics of the respondents were examined. The findings provide a scientific basis for improving psychological support and preventive measures, as well as for developing evidence-based practical recommendations that take regional characteristics into account.*

***Keywords:*** *violence, women, socio-psychological characteristics, regional comparative analysis, family relationships, psychological condition, psychological violence, economic violence, sexual violence.*

## KIRISH

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik bugungi kunda inson huquqlari, gender tengligi va jamoat salomatligiga jiddiy tahdid solayotgan global ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Zo‘ravonlikning jismoniy, psixologik, iqtisodiy va jinsiy shakllari ayollarning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko‘rsatish bilan birga, oila barqarorligi, farzandlar tarbiyasi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha taxminan har uch ayoldan biri (31,6 %) hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duch kelgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich mazkur muammoning dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.**1**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, oilalarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish hamda zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan qator huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**1** Violence against women prevalence estimates, 2023: global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and non-partner sexual violence against women. Geneva: World Health Organization; 2025.

Shu bilan birga, olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, oiladagi zo‘ravonlikning ayrim shakllari hanuzgacha yashirin xarakterga ega bo‘lib qolmoqda. Ko‘plab ayollar ijtimoiy bosim, iqtisodiy qaramlik yoki oilaviy munosabatlarning buzilishidan qo‘rqish sababli zo‘ravonlik holatlari haqida tegishli tashkilotlarga murojaat qilmaydi. Natijada rasmiy statistik ma'lumotlar zo‘ravonlikning haqiqiy ko‘lamini to‘liq aks ettirmaydi**2**

Zo‘ravonlikka uchragan ayollarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hududlar kesimida o‘rganish muammoning namoyon bo‘lish darajasi, yosh omili va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, ayollarning o‘zini erkin his qilishi, oiladagi muloqot, shaxsiy daxlsizlik, nazorat, ruhiy zo‘riqish, stress, tushkunlik va zo‘ravonlikning boshqa ko‘rinishlarini kompleks baholash profilaktik hamda psixologik yordam tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarning oilaviy munosabatlar, psixologik holat, nazorat va zo‘ravonlik turlariga duchor bo‘lish hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida “Ayollar o‘rtasida zo‘ravonlik darajasini aniqlash” mualliflik so‘rovnomasi o‘tkazildi.

**1-jadval.**

**“Ayollar o‘rtasida zo‘ravonlik darajasini aniqlash” mualliflik so‘rovnomasi natijalari**

| № | Savollar | Yoshi | Sirdaryo (N-123) | | | Surxandaryo (N-102) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | “xa” | “yo‘q” | “ba’zan” | “xa” | “yo‘q” | “ba’zan” |
| 1. | Siz o‘zingizni oilangizda yoki yaqin insonlaringiz bilan muloqotda erkin his qilasizmi? | 20-30 | 22% | 47% | 31% | 14% | 54% | 32% |
| | | 31-40 | 14% | 63% | 23% | 15% | 54% | 31% |
| | | 41-55 | 26% | 32% | 41% | 36% | 28% | 36% |
| | | 55+ | 55% | 18% | 27% | 54% | 23% | 23% |
| 2. | Yaqinlaringiz sizga jismoniy kuch ishlatgan holatlar bo‘lganmi? | 20-30 | 44% | 25% | 31% | 45% | 14% | 41% |
| | | 31-40 | 37% | 20% | 43% | 62% | 11% | 27% |
| | | 41-55 | 35% | 18% | 47% | 28.5% | 28.5% | 43% |
| | | 55+ | 9% | 86% | 5% | 8% | 69% | 23% |
| 3. | Sizga nisbatan og‘zaki tahdidlar (masalan, haqorat, kamsitish) tez-tez bo‘ladimi? | 20-30 | 69% | 9% | 22% | 55% | 18% | 27% |
| | | 31-40 | 53% | 11% | 36% | 65% | 12% | 23% |
| | | 41-55 | 47% | 24% | 29% | 57% | 18% | 25% |
| | | 55+ | 14% | 54% | 32% | 18% | 51% | 31% |
| 4. | Siz oila a’zolaringiz bilan muammolarni ochiq muhokama qila olasizmi? | 20-30 | 19% | 53% | 28% | 18% | 46% | 36% |
| | | 31-40 | 26% | 46% | 28% | 46% | 23% | 31% |
| | | 41-55 | 35% | 35% | 30% | 43% | 14% | 43% |
| | | 55+ | 55% | 18% | 27% | 62% | 23% | 15% |
| 5. | O‘zingizni past baholaysiz va qadrsiz his qilasizmi? | 20-30 | 37% | 29% | 34% | 41% | 27% | 32% |
| | | 31-40 | 34% | 29% | 37% | 31% | 27% | 42% |
| | | 41-55 | 31% | 26% | 43% | 33% | 26% | 41% |

**2** World Health Organization. *Violence against women prevalence estimates, 2018.* Geneva: WHO, 2021.

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 55+ | 12% | 51% | 37% | 14% | 56% | 30% |
| 6. | Siz mavjud vaziyatni o‘zgartirishga kuchingiz yetmasligini his qilasizmi? | 20-30 | 44% | 19% | 37% | 39% | 25% | 36% |
| | | 31-40 | 37% | 28% | 35% | 36% | 30% | 34% |
| | | 41-55 | 29% | 29% | 42% | 28.5% | 28.5% | 43% |
| | | 55+ | 27% | 46% | 27% | 23% | 46% | 31% |
| 7. | Sizdan ruxsatsiz telefoningiz, hamyoningiz yoki shaxsiy narsalaringiz tekshirilganmi? | 20-30 | 42% | 21% | 37% | 46% | 18% | 36% |
| | | 31-40 | 43% | 21% | 36% | 47% | 23% | 30% |
| | | 41-55 | 35% | 15% | 44% | 43% | 21% | 36% |
| | | 55+ | 18% | 40% | 42% | 15% | 46% | 39% |
| 8. | Siz doimiy nazorat yoki cheklov ostida ekanligingizni his qilasizmi? | 20-30 | 43% | 19% | 38% | 55% | 18% | 27% |
| | | 31-40 | 36% | 21% | 43% | 46% | 15% | 38% |
| | | 41-55 | 24% | 29% | 47% | 29% | 29% | 42% |
| | | 55+ | 27% | 46% | 27% | 23% | 46% | 31% |
| 9. | So‘nggi 6 oy ichida sizga nisbatan jinsiy mazmundagi bosim, majburlash yoki noqulay harakatlar sodir etilganmi? | 20-30 | 37.5% | 25% | 37.5% | 55% | 18% | 27% |
| | | 31-40 | 34% | 23% | 43% | 46% | 23% | 31% |
| | | 41-55 | 35% | 24% | 41% | 28.5% | 28.5% | 43% |
| | | 55+ | 17% | 37% | 46% | 14% | 38% | 48% |
| 10. | Zo‘ravonlik holatidan so‘ng sizda uyqu buzilishi, asabiylik yoki tushkunlik alomatlari paydo bo‘lganmi? | 20-30 | 31% | 31% | 38% | 36% | 28% | 36% |
| | | 31-40 | 44% | 23% | 33% | 52% | 23% | 25% |
| | | 41-55 | 37% | 26% | 37% | 47% | 23% | 33% |
| | | 55+ | 27% | 27% | 46% | 23% | 23% | 54% |

Tadqiqotda Sirdaryo viloyatidan 75 nafar va Surxondaryo viloyatidan 32 nafar ayol respondentlar ishtirok etgan bo‘lib, ular 20–30, 31–40, 41–54 hamda 55 yoshdan yuqori guruhlarga ajratilgan. So‘rovnoma savollari ayollarning oiladagi ruhiy va jismoniy holati, nazorat, erkinlik, o‘zini qadrlash, stress, ishonch va boshqa muhim psixologik jihatlarni qamrab olgan. Javob variantlari sifatida “Ha”, “Ba’zan” va “Yo‘q” ko‘rinishida baholash mezonlari belgilandi. Quyidagi tahlilda ayrim muhim indikatorlar kesimida viloyatlararo farqlar bayon qilinadi:

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning o‘zini oilada va yaqin insonlari bilan muloqotda erkin his qilish ko‘rsatkichi yosh guruhlari kesimida sezilarli farqlanadi. Xususan, Sirdaryo viloyatida 55 yoshdan yuqori ayollarning 55 foizi, Surxondaryoda esa 54 foizi o‘zini erkin his qilishini bildirgan. Biroq 20–40 yoshdagi respondentlarda bu ko‘rsatkich ancha past bo‘lib, Sirdaryo viloyatida 22 foizni, Surxandaryoda 14 foizni tashkil etadi. 31–40 yosh guruhida atigi 14 va 15 foiz. 41-54 yosh guruhida esa, Sirdaryo viloyatida 26 foizni Surxandaryo viloyatida 36 foizni tashkil etgan. Bu holat yosh ayollar oilaviy munosabatlarda o‘z fikrini erkin ifoda etishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ko‘rsatadi.

Jismoniy zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar ayniqsa tashvishlidir. 20–30 yoshdagi respondentlarning 44–45 foizi va 31–40 yoshdagi respondentlarning 37–62 foizi yaqinlari tomonidan jismoniy kuch ishlatilganligini tasdiqlagan. Eng yuqori ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatining 31–40 yosh guruhida (62%) kuzatilgan. Shu bilan birga, 55 yoshdan

yuqori respondentlar orasida bunday holatlar nisbatan kam uchrashi aniqlangan. Bu esa yosh va o‘rta yoshdagi ayollar zo‘ravonlikning yuqori xavf guruhiga kirishini ko‘rsatadi.

“Sizga nisbatan og‘zaki tahdidlar (haqorat, kamsitish) tez-tez bo‘ladimi?” savoli natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki viloyatda ham og‘zaki zo‘ravonlik ko‘proq yosh respondentlar orasida uchraydi. Sirdaryo viloyatining 20–30 yoshli ayollarida “ha” javobi 69%, Surxondaryoda esa 55%ni tashkil etadi. 31–40 yosh guruhida esa, Sirdaryoda 53 foiz, Surxandaryoda esa 65 foizi haqorat va kamsitishlarga tez-tez duch kelishini bildirgan. 41–54 yoshda ham Surxondaryo ko‘rsatkichi 57 foiz Sirdaryoda esa 47 foizni tashkil etadi. 55 yoshdan yuqori respondentlarda esa har ikki hududda og‘zaki tahdidlar darajasi sezilarli pasaygan: “ha” javoblari Sirdaryoda 14 foiz, Surxondaryoda 18 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, “yo‘q” javoblarining yuqori ulushi 54 va 51 foiz ushbu yosh guruhida og‘zaki zo‘ravonlik kamroq uchrashini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar psixologik zo‘ravonlik yosh va o‘rta yoshdagi ayollar orasida ko‘proq uchrayotganligi anglatadi.

Oiladagi muammolarni ochiq muhokama qilish imkoniyati bo‘yicha natijalar respondentlarning katta qismi konstruktiv muloqot imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rsatadi. Sirdaryo viloyatida 20–30 yoshdagi ayollarning 53 foizi, Surxondaryo viloyatida esa 46 foizi oiladagi muammolarni ochiq muhokama qila olmasligini qayd etgan. Aksincha, 55 yoshdan yuqori respondentlarda ijobiy javoblar ulushi yuqoriroq bo‘lib, bu yosh ortishi bilan oiladagi mavqe va qaror qabul qilishdagi ishtirok kuchayishini anglatishi mumkin.

Respondentlarning o‘zini qadrsiz his qilishi va past baholashi ko‘rsatkichlari ham sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Sirdaryo viloyatida 20-30 yoshdagi ayollarning 37 foizi, Surxondaryoda esa 41 foizni tashkil etadi. 31-40 yoshda esa Sirdaryoda 34 foiz, Surxandaryoda 31 foizni tashkil etadi ayollarning 41 foizi o‘zini qadrsiz his qilishini bildirgan. Shu bilan birga, “ba’zan” javoblari ulushining yuqoriligi psixologik noqulaylik holatlari respondentlarning katta qismida kuzatilayotganini tasdiqlaydi.

“Siz mavjud vaziyatni o‘zgartirishga kuchingiz yetmasligini his qilasizmi?” savoli bo‘yicha olingan natijalar 20–30 yosh guruhida respondentlarning Sirdaryo viloyatida 44 foizi, Surxandaryo viloyatida esa, 39 foizi o‘zini vaziyatni o‘zgartirishga ojiz deb his qilishini bildirgan. 31–40 yosh guruhida ham respondentlarning muhim qismi o‘zini vaziyatni o‘zgartirishga ojiz deb his qilishini bildirgan (Sirdaryoda 37%, Surxondaryoda 36%). Bundan tashqari, “ba’zan” javoblarining ham salmoqli ulushi ushbu hissiyotning davriy ravishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. 41–54 yosh respondentlar orasida “ba’zan” javoblari eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan bo‘lib, mazkur yosh guruhida vaziyatni o‘zgartira olmaslik hissi doimiy emas, balki muayyan hayotiy vaziyatlar ta’sirida yuzaga kelishini anglatadi. 55 yosh va undan katta respondentlarda “yo‘q” javoblari ustunlik qilgan (har ikki hududda 46%). Bu holat katta yoshdagi respondentlarning aksariyati o‘z hayotiy tajribasi va moslashuvchanligi tufayli mavjud vaziyatni boshqarish imkoniyatiga ega deb hisoblashlarini ko‘rsatadi. Biroq, ayrim respondentlar ushbu hissiyotni ba’zan boshdan kechirishlarini ham bildirgan.

“Sizdan ruxsatsiz telefoningiz, kiyimlaringiz yoki shaxsiy narsalaringiz tekshirilganmi?” savoli bo‘yicha natijalar respondentlarning shaxsiy hayot daxlsizligiga aralashuv holatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, 20–30 yosh guruhida respondentlar orasida Sirdaryo viloyatida 42 foizni, Surxondaryo viloyatida esa 46 foizni tashkil etadi. 31–40 yosh respondentlar orasida ham “ha” javoblari yuqori bo‘lib, Sirdaryoda 43 foiz, Surxonaryoda 47 foizni tashkil etgan. Bu yosh guruhida shaxsiy makonga aralashish holatlari nisbatan ko‘proq uchrayotganini ko‘rsatadi. 41–54 yosh guruhida “ba’zan” javoblari ustunlik qilgan. Jumladan,

Sirdaryoda respondentlarning 44 foiz, Surxondaryoda esa 36 foizi bunday holatlar vaqti-vaqti bilan sodir bo‘lishini bildirgan. Shu bilan birga, “ha” javoblari ham mos ravishda 35% va 43% ni tashkil etgan. 55 yosh va undan katta respondentlarda esa “yo‘q” javoblari nisbatan yuqori bo‘lib, Sirdaryoda 40 foiz, Surxondaryoda 46 foizni tashkil etgan. Biroq, “ba’zan” javoblarining Sirdaryoda 42 foiz, Surxondaryo viloyatida 39 foizni tashkil etishi mazkur holatlarning doimiy emas, balki vaziyatga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Nazorat, cheklov va shaxsiy erkinlikka ruxsat berilmaslik holatlari 20–30 yosh respondentlar orasida ushbu holat eng yuqori darajada kuzatilgan. Sirdaryoda respondentlarning 43 foizi, Surxondaryoda esa 55 foizi doimiy nazorat yoki cheklov ostida ekanligini his qilishini bildirgan. Bu yosh guruhida nazorat hissi yoshlar orasida keng tarqalganligini ko‘rsatadi. 31–40 yosh guruhida ham “ha” javoblari yuqori bo‘lib, Sirdaryoda 36 foiz, Surxondaryoda 46 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, “ba’zan” javoblari ham 43-38 foiz, respondentlarning katta qismi nazoratni vaqti-vaqti bilan his qilishini qayd etgan. 41–54 yosh respondentlar orasida “ba’zan” javoblari ustunlik qilgan. Sirdaryoda respondentlarning 47 foiz, Surxondaryoda esa 42 foizi doimiy nazorat hissini ayrim vaziyatlarda boshdan kechirishini bildirgan. “Ha” javoblarining nisbatan pastligi ushbu yosh guruhida nazorat hissining doimiy emasligini ko‘rsatadi. 55 yosh va undan katta respondentlarda “yo‘q” javoblari eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan (har ikki hududda 46%). Bu esa katta yoshdagi respondentlarning aksariyati o‘zlarini doimiy nazorat yoki cheklov ostida his qilmasliklarini anglatadi. Biroq, respondentlarning 27–31 foizi bunday holatlarni ba’zan his qilishlarini aytib o‘tishgan. Bu holat yosh respondentlarning oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda nazoratga ko‘proq duch kelayotganligini anglatadi.

Yolg‘izlik va himoyasizlik hissi 20–30 yosh guruhida Surxondaryo viloytida 55 foizni Sirdaryo viloyatida 37,5 foizni tashkil etadi. Mazkur holat Surxondaryodagi yosh ayollarning psixologik jihatdan ko‘proq qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezishi, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarda o‘zini himoyasizroq his qilishi mumkinligini anglatadi. 31–40 yosh respondentlar orasida ham Surxondaryo viloyatida “ha” javoblari 46 foiz, Sirdaryo viloyatida esa 34 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, Sirdaryoda respondentlarning 43 foizi ushbu holatni ba’zan his qilishini bildirgan. 41–54 yosh guruhida Sirdaryoda “ha” javoblari 35 foiz, Surxandaryoda esa 28,5 foizni tashkil etgan. Biroq, har ikki hududda ham “ba’zan” javoblarining yuqori ulushi (41–43%) mazkur hissiyotning ko‘proq vaziyatga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishini anglatadi. 55 yosh va undan katta respondentlar orasida “ha” javoblari nisbatan past bo‘lsa-da, “ba’zan” javoblari ustunlik qilgan. Sirdaryo viloyatida 46 foiz, Surxondaryo viloyatida 38 foizni ko‘rsatgan. Bu esa katta yoshdagi respondentlarda farzandlari va kelinlari tomonidan zo‘ravonlikni amalga oshirilishini, shu bois ba’zan himoyasizlik va yolg‘izlik hissini shakllanishiga olib kelishini ko‘rsatdi.

Ruhiy iztiroblar, stress, depressiya, uyqu buzilishi, asabiylik yoki tushkunlik alomatlari 20–30 yosh guruhidagi respondentlarda Sirdaryo viloyatida 31 foiz, Surxondaryoda esa 36 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, har ikki hududda “ba’zan” javoblari ham yuqori (38% va 36%) bo‘lib, psixologik salbiy oqibatlarning davriy ravishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. 31–40 yosh respondentlar orasida mazkur alomatlar eng yuqori darajada qayd etilgan. Sirdaryoda 44 foiz, Surxondaryoda esa 52 foiz respondent ushbu holatni tasdiqlagan. 41–55 yosh guruhida respondentlarning Sirdaryoda 37 foiz, Surxondaryoda esa 47 foiz ayollar zo‘ravonlik oqibatida uyqu buzilishi, asabiylik yoki tushkunlik alomatlari yuzaga kelganini bildirgan. Shu bilan birga, har ikki hududda 33–37% respondent ushbu holatlarni ba’zan kuzatishini qayd etgan. 55 yosh va undan katta respondentlarda esa “ba’zan” javoblari ustunlik qilgan (Sirdaryoda 46%,

Surxondaryoda 54%). Bu holat mazkur yosh guruhida psixologik alomatlar doimiy emas, balki ayrim vaziyatlarda namoyon bo‘lishini anglatadi.

Respondent sifatida tanlab olingan 20–30 yosh ayollarda jismoniy zo‘ravonlik Guliston shahrida o‘rtacha 39,3%, Termiz shahrida esa 45,3% ni tashkil etdi. Termizdagi ko‘rsatkich Gulistonga nisbatan 6 foizga yuqori bo‘lib, yosh ayollarning jismoniy bosim va zo‘ravonlikka ko‘proq duch kelayotganligini ko‘rsatadi. 31–40 yosh ayollarda esa jismoniy zo‘ravonlik eng yuqori darajaga yetgan. Guliston shahrida bu ko‘rsatkich 39%, Termiz shahrida esa 53,3% ni tashkil etgan. Hududlar o‘rtasidagi farq 14,3% bo‘lib, tadqiqotdagi eng katta tafovutlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur holat Surxandaryo viloyatida ko‘p avlodli oilaviy tuzilmalarning mavjudligi bilan ham bog‘liqdir. Odatda bunday xonadonlarda ota-ona, bobo-buvi hamda kelin-kuyov birga yashaydi. Shu kabi oilaviy birlik va an’anaviy ijtimoiy nazorat tizimi, ma’lum darajada, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining ochiq ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishini kamaytiruvchi omil sifatida xizmat qilgan. 41–54 yosh respondentlar orasida jismoniy zo‘ravonlik darajasi nisbatan pasayib, Guliston shahrida 32%, Termiz shahrida 34,8% ni tashkil etdi. Farq katta bo‘lmasa-da, Termiz shahrida ko‘rsatkich yuqoriroq bo‘lib qolmoqda. 55 yosh va undan katta respondentlarda jismoniy zo‘ravonlik eng past darajada qayd etildi. Guliston shahrida 21%, Termiz shahrida esa 18% natija kuzatildi. Bu esa yosh ortishi bilan jismoniy zo‘ravonlik holatlarining kamayishini ko‘rsatadi.

Natijalar psixologik zo‘ravonlik barcha yosh guruhlarida uchrashini, ayniqsa o‘rta yoshdagi ayollar orasida yuqori ekanligini ko‘rsatdi. 20–30 yoshdagi ayollarda psixologik zo‘ravonlik Guliston shahrida 36,7%, Termiz shahrida esa 29% ni tashkil etdi. Guliston shahridagi ko‘rsatkich 7,7% ga yuqori bo‘lib, yosh ayollar orasida haqorat, kamsitish va muloqot erkinligining cheklanishi holatlari ko‘proq uchrayotganligini ko‘rsatdi. 31–40 yosh respondentlar orasida psixologik zo‘ravonlik Guliston shahrida 31%, Termiz shahrida esa 42% ni tashkil etdi. Farq 11% bo‘lib, Termiz shahrida ruhiy bosim va emotsional zo‘ravonlikning kuchliroq namoyon bo‘layotganligini ko‘rsatdi. 41–54 yosh guruhida psixologik zo‘ravonlik Gulistonda 36%, Termizda 45,3% ni tashkil etgan. Hududlar o‘rtasidagi farq 9,3% bo‘lib, Termiz shahrida emotsional bosim va psixologik zo‘ravonlikning davom etayotganligini tasdiqlaydi. 55 yosh va undan katta respondentlarda psixologik zo‘ravonlik Guliston shahrida 41,3%, Termiz shahrida esa 44,7% ni tashkil etdi. Jismoniy zo‘ravonlik kamaygan bo‘lsa-da, psixologik zo‘ravonlikning yuqori darajada saqlanib qolishi katta yoshdagi ayollarning ham ruhiy bosimga duch kelayotganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, psixologik zo‘ravonlik har ikki hududda ham keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa Termiz shahrining 31–55 yoshdagi ayollari orasida yuqori darajada namoyon bo‘lgan.

Iqtisodiy zo‘ravonlik ko‘rsatkichlari ayollarning qaror qabul qilishdagi mustaqilligi va shaxsiy daxlsizlik darajasini aks ettiradi. 20–30 yosh ayollarda iqtisodiy zo‘ravonlik Guliston shahrida 43%, Termiz shahrida 42,5% ni tashkil etdi. Har ikki hududda ko‘rsatkichlar deyarli bir xil bo‘lib, yosh ayollarning iqtisodiy va shaxsiy mustaqilligi ma’lum darajada cheklanayotganligini ko‘rsatadi. 31–40 yosh respondentlarda iqtisodiy zo‘ravonlik Gulistonda 40%, Termizda 41,5% ni tashkil etdi. Ushbu yosh davrida iqtisodiy qaramlik va nazorat elementlari yuqori darajada saqlanib qolgan. 41–54 yosh guruhida iqtisodiy zo‘ravonlik ko‘rsatkichi Guliston shahrida 32%, Termiz shahrida 35,8% ni tashkil etdi. Bu davrda ko‘rsatkichlar pasaya boshlagan bo‘lsa-da, ayrim respondentlar hanuz iqtisodiy va shaxsiy nazoratni his qilishlarini bildirgan. 55 yosh va undan katta respondentlarda iqtisodiy zo‘ravonlik

Guliston shahrida 22,5%, Termiz shahrida 19% ni tashkil etdi. Mazkur natijalar yosh ortishi bilan iqtisodiy zo‘ravonlik darajasi ham pasayib borishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari jinsiy zo‘ravonlik va uning psixologik oqibatlari, ayniqsa yosh va o‘rta yoshdagi ayollar orasida kengroq tarqalganligini ko‘rsatdi. 20–30 yoshdagi respondentlar orasida jinsiy zo‘ravonlik indikatorlari Guliston shahrida o‘rtacha 37,3 foiz, Termiz shahrida esa 48 foizni tashkil etdi. Hududlar o‘rtasidagi farq 10,7 foiz bo‘lib, Termiz shahrida jinsiy zo‘ravonlik bilan bog‘liq holatlar ko‘proq uchrashi kuzatildi. 31–40 yosh guruhida Guliston shahrida mazkur ko‘rsatkich 34 foiz, Termiz shahrida esa 38,5 foizni tashkil etdi. Farq nisbatan kam bo‘lsa-da, Termiz shahrida yuqoriroq natija qayd etildi. 41–54 yoshdagi respondentlar orasida jinsiy zo‘ravonlik indikatorlari Guliston shahrida 33 foiz, Termiz shahrida 30,8 foizni tashkil etdi. Ushbu yosh guruhida Guliston shahridagi ko‘rsatkich biroz yuqori bo‘lib, hududlar o‘rtasidagi farq katta emasligi aniqlandi.

55 yosh va undan katta respondentlarda jinsiy zo‘ravonlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pasaygan. Guliston shahrida 14,5 foiz, Termiz shahrida esa 14 foiz natija qayd etildi. Bu yosh guruhida jinsiy zo‘ravonlik bilan bog‘liq holatlar boshqa yosh toifalariga nisbatan ancha kam uchragan.

**XULOSA**

Hududlar kesimidagi qiyosiy tahlil Surxondaryo viloyatida ayrim zo‘ravonlik ko‘rsatkichlari, xususan jismoniy, psixologik va jinsiy zo‘ravonlik indikatorlari Sirdaryo viloyatiga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, har ikki hududda ham psixologik zo‘ravonlik barcha yosh guruhlarida keng tarqalganligi hamda zo‘ravonlik oqibatida stress, asabiylik, tushkunlik va uyqu buzilishi kabi ruhiy holatlar tez-tez uchrashi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari zo‘ravonlikka uchragan ayollar bilan ishlashda hududiy va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda psixologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Profilaktik dasturlarni, oilaviy psixologik maslahat xizmatlarini va psixologik reabilitatsiya mexanizmlarini kuchaytirish zo‘ravonlikning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari zo‘ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Violence against women prevalence estimates, 2023: global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and non-partner sexual violence against women. Geneva: World Health Organization; 2025.
2. World Health Organization. *Violence against women prevalence estimates, 2018.* Geneva: WHO, 2021.
3. United Nations. Handbook for Legislation on Violence against Women. New York: United Nations, 2010.
4. UN Women. Measuring the Shadow Pandemic: Violence against Women during COVID-19. New York: UN Women, 2021.
5. United Nations Population Fund. Essential Services Package for Women and Girls Subject to Violence: Core Elements and Quality Guidelines. New York: UNFPA, 2015.